FA vitse-prezidenti Shahlo Turdiqulova Jahon Fanlar akademiyasi (TWAS) akademigi diplomini qabul qildi

2025-yil 29-sentyabrdan 2-oktyabrga qadar Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida Jahon Fanlar Akademiyasi (TWAS)ning navbatdagi Bosh konferensiyasi bo‘lib o‘tmoqda. Bu yilgi konferensiya kun tartibida sog‘liqni saqlash, iqlim o‘zgarishi, barqaror rivojlanish va innovatsiyalar kabi dolzarb mavzular muhokama qilinmoqda.

Joriy yil boshida Jahon Fanlar Akademiyasi akademigi etib saylangan (https://twas.org/directory/turdikulova-shahlo) O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, professor Shahlo Turdiqulovaga mazkur konferensiyada tantanali ravishda rasmiy diplom topshirildi.

Ma'lumot o'rnida: *TWAS — 1983-yili tashkil etilgan nufuzli xalqaro akademiya bo‘lib, dunyo bo‘ylab eng yirik va taniqli olimlarni birlashtiradi. Akademiyada 100 dan ortiq mamlakatdan 1 400 dan ziyod yetakchi olimlar bo‘lib, tarkibida Nobel mukofoti sohiblari hamda turli sohalarda ulkan yutuqlarga erishgan yetakchi olimlar faoliyat yuritadi.*